

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
“TURIZM VA SERVIS” KAFEDRASI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK: 338.48:603.4:7A(575.1)**

**SHARIPOV BOSITXON BAHODIR O‘G‘LI**

**“O‘ZBEKISTONDA TURIZM XIZMATLARINI SERTIFIKATLASH”  
(Sport va turizm xizmatlarini sertifikatlash markazi DUK misolida)**

**710110401 – Turizm (faoliyat turlari bo‘yicha)  
mutaxassisligi bo‘yicha**

magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

**DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: I.f.d. prof. Abduvohidov A.

Toshkent-2023

Magistrlik dissertatsiya ishi "Turizm va servis" kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

1 -sonli bayonnoma "24" aprel 2023 y.

Kafedra mudiri: Axmedov I.

[imzo] 05.05.2023  
imzo sana

Ilmiy rahbar: Abduvohidov A.

[imzo] 03.05.23  
imzo sana

Talaba:

Sharipov B.

[imzo] 03.05.23  
imzo sana

Dissertatsiya magistratura bo'limida 202 yil "20" dekabr

№ 808-T raqami bilan ro'yxatga olingan.

## ANNOTATSIYA

Bugungi raqobatbardosh bozor sharoitida nafaqat boshqa sohalarda balki turizm sohasida ham raqobat juda yuqori bo'lib, bu nafaqat mahalliy balki xalqaro tarzdagi raqobat desak adashmagan bo'lamiz. Bunday raqobat sharoitida mamlakatimizga tashrif buyurayotgan turistlar oqimini ko'paytirish, ularga sifatli xizmat ko'rsatish, jahon bozorida o'z o'rnimizga ega bo'lish uchun ham turizm sohasini tartibga solib turish, undagi yutuq va kamchilklarni doimiy tarzda tahlil qilib borish, xizmat ko'rsatish sifatining doimiyligini ta'minlash, marketing strategiyalaridan foydalanish, sohaga yetarli bo'lgan infratuzilmani yaratish, malakali kadrlar yetishtirish zarur hisoblanadi.

Bu kabi masalalarda ya'ni turistlarga sifatli xizmat ko'rsatish, xizmat ko'rsatish sifatining doimiyligini ta'minlashda sertifikatlangan turistik xizmatlarning o'rni beqiyosdir.

Biz magistrlik dissertatsiyamizda aynan shu masalani ko'tardik, undagi muammo va yechimlarni, jahon tajribasini tahlil qildik va o'z taklif va tavsiyalarimiz bilan soha rivojiga hissa qo'shishni ko'zladik.

*Kalit so'zlar: raqobat, turizm, turistlar oqimi, jahon bozori, malakali kadrlar, marketing strategiyalari, turistik xizmatlar, jahon tajribasi.*

## Annotation

In today's competitive market, competition is very high not only in other fields, but also in the field of tourism. In the conditions of such competition, to increase the flow of tourists visiting our country, to provide them with quality service, to organize the tourism industry in order to have our place in the world market, to constantly analyze its achievements and shortcomings, it is necessary to use marketing strategies to ensure the continuity of the quality of the presentation, to create an infrastructure sufficient for the industry and to train qualified personnel.

The role of certified tourist services in such matters, i.e. providing high-quality service to tourists and ensuring the continuity of service quality, is incomparable.

We raised this issue in our master's thesis, analyzed its problems and solutions, world experience, and aimed to contribute to the development of the field with our suggestions and recommendations.

*Key words: competition, tourism, flow of tourists, world market, qualified personnel, marketing strategies, tourist services, world experience.*



## O'zbekistonda turizm xizmatlarini sertifikatlash

Annotatsiya.....	3
Mundarija.....	5
Keltirilgan diagrammalar ro'yxati.....	6
Keltirilgan jadvallar ro'yxati.....	7
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	8
Keltirilgan qisqartmalar.....	9
<b>KIRISH.....</b>	<b>10</b>
Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi.....	10
Tadqiqot maqsadi va vazifalari.....	12
Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari.....	12
Tadqiqot obyekti va predmeti.....	13
Tadqiqotning ilmiy yangiligi.....	13
Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi.....	14
<b>I BOB. ADABIYOTLAR SHARHI.....</b>	<b>15</b>
1.1. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar sharhi.....	15
1.2. Mavzuga oid mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi.....	20
<b>II BOB. METODOLOGIYA.....</b>	<b>25</b>
2.1. Ma'lumotlarni to'plash jarayoni.....	25
2.2. Tahlil uchun qo'llaniladigan usullar.....	26
2.3. Tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi.....	26
2.4. Tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar.....	27
<b>III BOB. TAHLIL VA NATIJALAR.....</b>	<b>28</b>
3.1. O'zbekistonda turistik xizmatlarni sertifikatlash va unda qo'llaniladigan asosiy tushunchalar va joylashtirish vositalariga qo'yiladigan minimal talablar.....	28
3.2. Turizm faoliyatini tartibga soluvchi standartlar.....	38
3.3. Barqaror turizmnining maqsadlari va uni sertifikatlash.....	46
<b>XULOSA.....</b>	<b>59</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI.....</b>	<b>64</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>67</b>

## KIRISH

### Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Bugungi kunda mamlakatimizda turistlar oqimini ko'paytirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, yangi xizmat turlarini yaratish, turistlarni mamlakatimizga jalb qilish maqsadida bir qancha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga yurtimizda tashkil etilayotgan joylashtirish vositalariga ham katta e'tibor qaratilib, turistlar uchun qulay shart sharoitlar yaratish maqsadida joylashtirish vositalarining mavjud imkoniyatlari tahlil qilinmoqda, ularning davlat standartiga muvofiqligi baholanmoqda va bu bilan xizmatlar sifatining barqarorligiga erishilmoqda desak adashmagan bo'lamiz.

O'z navbatida savol tug'iladi, mamlakatimizga turistlarni jalb etganimizdan so'ng ularga sifatli xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun yurtimizda qanday ishlar amalga oshirilmoqda? Misol qilib asosiy xizmatlardan biri bo'lgan joylashtirish xizmatini oladigan bo'lsak, kundan kunga turistlar soni ortgani sari joylashtirish vositalari xususan mehmonxonalar soni ham muntazam ortib bormoqda. Ulardagi mavjud imkoniyatlar, xodimlar malakasi va boshqa bir qancha talablarga javob berishini ko'rsatib bera olishi va qonunchiligimizga ko'ra joylashtirish vositasi (mehmonxonalar) belgilangan davlat standartiga muvofiqligi to'g'risidagi muvofiqlik sertifikatiga ega bo'lishi lozim. Bu ham o'z navbatida JV (mehmonxonalar)dagi xizmatlar sifatini oshirishga va turizm sohasining, madaniyatining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Haqiqatdan ham bugungi kunda mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida mavjud turistik resurslardan maksimal darajada foydalanish va aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlash xizmat ko'rsatish sohasidagi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizning turizm sohasidagi yetarli darajada va har qanday xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. Mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan to hozirga qadar zamon talablariga javob beradigan turizm